

4 dekabr Toshkent axborot texnologiyalari universitetida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yillik bayrami munosabati bilan tantanali tashkil etildi. Tadbirda universitet rektori H.A.Muxitdinov yig'ilganlarni bayram bilan tabriklab, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyati haqida qisqacha gapirib o'tdi. Shundan so'ng, Gumanitar fanlar kafedrasida professori Tulenova Gulmira Jandarovna - "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - demokratik islohotlarning mustahkam negizi" mavzusida, shu kafedra katta o'qituvchisi Bobojonov Xasan Baxtiyorovich - "Konstitutsiyalar tarixi - dunyo va O'zbekiston tajribasi" mavzusida ma'ruza qildilar. Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlangan TATU Maxsus fakultetining boshliq o'rinbosari Qutlimuratov Mirza Jullibaevich ga rektor tomonidan tashakkurnoma bildirildi. Shu bilan birga, AKTslvaMF Menejment va marketing kafedrasida professori Qodirov Abdurashid Abdumajidovich, Energiya ta'minlash tizimlari kafedrasida dotsenti Mamatkarim Sapaev, Audiovizual texnologiyalar kafedrasida assistenti Gulshan Qayumova, Oliy matematika kafedrasida katta o'qituvchisi Igamberdiev Karimberdi Abdullaevich, Ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va tizimlari kafedrasida dotsenti Jabborov Shuxrat Yuldashevich, Kompyuter injiniring fakulteti Axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti Zaynuddinova Dilfuza Baxodirovna, Gumanitar fanlar kafedrasida professori Tulenova Gulmira Jandarovna, Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi Bobojonov Xasan Baxtiyorovich lar ham tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.